



JAHOLATPARASTLIK – MA'RIFATLI JAMIYATNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHGA TO'SQINLIK QILUVCHI KUCH

Achilova Nilufar Norbutayevna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,
"Milliy g'oya va falsafa" kafedrasida o'qituvchisi
Tel. (94) 251 76 62


<https://doi.org/10.5281/zenodo.15679438>

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada Yangilanayotgan O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirish va rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi kuch hisolanadigan jaholatparastlikning ma'no-mazmuni, obyektiv va subyektiv omillar, g'ayriinsoniylikdan iborat vazifalari, namoyon bo'lish shakllari, ularni bartaraf etish uslub va vositalari atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar. Yangilanayotgan O'zbekiston, ma'rifat, ma'rifatli jamiyat, ma'rifatli inson, ma'rifatparvarlik, jahl, jaholat, jaholatparastlik, johillar, g'azab, dunyoviy va diniy dunyoqarash, jahl va aql.

Yangi O'zbekiston - bu ma'rifatli insonlar aql-zakovati bilan shakllanib, rivojlanib boradigan, har bir fuqaroning adolatlilik prinsiplari asosida barcha tabiiy yashash, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy huquqlarini kafolatlaydigan bir ma'naviy-ma'rifiy makon zaminiga quriladigan "suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatdir"[1.4.]. Ma'rifatli jamiyat esa bu har tomonlama dunyoviy va diniy ilmlar ziyosini o'zida mujassamlashtirgan, ana shu ziyoni quyosh nuri kabi ijtimoiy borliqqa taratadigan ma'rifatli insonlar hamjamiyatidir.

Globalashuv sharoitida ma'rifatli jamiyatni shakllantirish va rivojlantirishning oson kechmasligi, tabiiy holdir. Chunki, olamdagi sirli sinoatlardan biri bu ma'rifat bilan bir qatorda uning ziddi bo'lgan jaholatning ham mavjudligidir. Jaholatni insoniyat rivoji tarixidagi voqealar silsilasida hamma vaqt g'ayriinsoniy ruhiy-axloqiy fenomen sifatida baholab kelishgan. Chunki, u o'zining g'ayri tabiiy ko'rinishdagi xatti-harakatlari bilan shaxslar, jamoalar, elat, millat va xalqlar boshiga ko'plab kulfatlarni yog'dirgan. Bu xususda davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev: " ..turli xalqlar o'rtasida urush olovini yoqish, milliy va diniy ziddiyatlarni avj oldirishga urinayotgan kuchlar ham afsuski, yo'q emas. Bunday xatarlar ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman. Bunday yovuz kuchlarga qarshi kurashda, avvalo doimiy hushyorlik va ogohlik, butun xalqimizning birligi va hamjihatligi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bunday xavf-xatarlarga qarshi faqat kuch ishlatish usullari bilan emas, balki, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish lozim"[2.288-289.],-deb yozgangan edi.





Xo'sh, shunday ekan jaholat nima, degan savol tug'iladi? «Jaholat» so'zi kundalik ma'noda nojo'ya xatti-harakatdan, gapdan yoki voqea-hodisadan ranjish, achchiqlanish, g'azzablanish tuyg'usi, degan ma'noni anglatuvchi «jahl» (arabcha – nodonlik, aqlsizlik; ilmsizlik) so'zidan olingan bo'lib[3.78.], biron bir kimsaning ilmsizligini, qoloqligini, madaniyatsizligini, nodonligini anglatish uchun ishlatiladi. Bunda, shuni unutmash kerakki, «jahl» so'zi kundalik hayotda bir tomondan ijobiy, ya'ni mavjud voqelikni chuqur anglagan holda, uni o'rganish va o'zgartirish borasidagi fikr va xatti-harakatlarga qarshi chiquvchilarga qarshi jahlu-g'azab orqali, ikkinchi tomondan salbiy, ya'ni mavjud narsa, voqaye, hodisalarning tub mohiyatini tushunmasdan ularga nisbatan ilmsizlarcha, nodonlik bilan munosabat bildirish sifatida qo'llanilishi mumkin.

«Jaholat» tushunchasi o'z ichiga «jahl» so'zining o'zagi asosida qurilgan, jahldorlik, jahillanmoq, jahlli, johil, johllik, jaholatparasitlik kabi tushunchalarni qamrab oladi. Masalan, jahldor – salga jahli chiqaveradigan, hadeb jahl qilaveradigan, serjahl, achchig'i tez odamning salbiy fazilatini; jahlli – odamning g'azabi kelganligini, g'azab bilan to'lganlikni; johillik – odamning nodonlik, qoloqlik, madaniyatsizlik, o'jarliligini, johil – odamning jaholatda qolgan, ilm-ma'rifatdan mahrum, qoloqlik, madaniyatsizlik, nodonlikni anglatadi. Bunda, shunga alohida e'tibor berish kerakki, jahl – bu odamdagi ko'proq ruhiy holatni, aniqrog'i o'zini tutolmasdan xatti-harakat sodir qilishni bildiradi. Jaholat esa keng odamlar, ijtimoiy guruhlardan tashkil topgan jaholatparastlar tomonidan sodir etiladigan g'ayriinsoniy xatti-harakatlarni aks ettiruvchi axloqiy-falsafiy kategoriyalar jumlasiga kiradi. Demak, yuqorida keltirilgan so'zlarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda jaholat tushunchasiga quyidagicha falsafiy ta'rif berish mumkin.

Jaholat – bu odamning eskilikka yopishib ilm-ma'rifatdan mahrum bo'lib qolgan holda, o'zini idora qilolmasdan o'zgalarga nisbatan ilmsiz tarzda qiladigan nodonlarcha g'ayriinsoniy ruhiy-axloqiy xatti-harakatlarining muayyan tizimidir.

Jaholat ma'rifatli jamiyatni shakllantirish va rivojlantirishga zarar yetkazuvchi g'ayriinsoniy ruhiy-axloqiy hodisa sifatida o'z obyekti va subyektiga egadir. Bunda jaholatning obyektini jaholatparastlarning diqqat e'tibori qaratilgan narsa, hodisa va jarayonlar, uning subyekti esa jaholatparasitlikka asoslangan bo'zg'unchi vayronkor g'oyalarni amalga oshirish ilinjida yurgan johil odamlar va ularning uyushmalari tashkil qiladi.





Jaholatning obyektiga ko'ra ko'rinishlari. Jaholat obyektiga ko'ra quyidagi ko'rinishlarda, ya'ni jaholatparastlarning:

1) ich-ichidan mavjud ma'rifatli jamiyat rivojini ko'rolmasdan, unga nisbatan ilmsizlarcha, ya'ni uning moddiy va ma'naviy hayotidagi ijobiy o'zgarishlarga nodonlarcha salbiy munosabatda bo'lishida;

2) davlat hokimiyati tomonidan amalga oshirayotgan iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'rifiy-madaniy-ma'naviy islohotlarning mohiyatini tushunmasdan, ularga jahl bilan aqlsizlarcha qarshilik ko'rsatayotganligida;

3) uzoq va yaqin qo'shni davlatlar bilan tenglik va o'zaro yordam tarzida o'rnatilayotgan munosabatlarga rahna solishga urinishlarida;

4) elat, millat va xalqlarning qadriyatlarini mensimasdan, ularni vaxshiylarcha vayron qilishga harakat qilayotganliklarida;

5) ilm-fan yutuqlarini tan olmasdan taraqqiyotga to'sqinlik qilayotganliklarida;

6) din niqobi ostida xalqlar o'rtasida nizo chiqarib, mavjud hokimiyatni ag'darib tashlab o'zlarining hokimiyatini o'rnatishni avj oldirayotganliklarida;

7) insonni oliy qadriyat deb hisoblamasdan, bolalar va ayollarning haq-huquqlarini paymol qilib, ularni sotib yuborish evaziga katta mablag' to'playotganliklari kabi xatti-harakatlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Jaholatning subyektiga ko'ra ko'rinishlari. Jaholat subyektiga ko'ra quyidagi ko'rinishlarda, ya'ni jaholatparastlarning:

1) jamiyat hayotida vujudga kelgan muammolarni aql, ilm bilan emas, balki jismoniy kuch ishlatish yo'li bilan hal etishga urinishida;


2) o'ziga-o'zi mahliyo bo'lib ma'rifatgo'y donishmandlarning maslahatlariga quloq solmasdan o'ta o'jarlik bilan ish bajarishida;

3) mansabparastlik balosiga chalinib barcha odamlar unga bo'ysunishini, o'zi hech kimga bo'ysunmaslikni xohlashida, bo'ysunmaganlarni o'ziga va jamiyatga dushman deb bilishida;

4) o'tkinchi, yuzaki narsalar, mol-dunyo, jismoniy lazzatlar, hirsu shahvat, obro', amal, shon-shuhratni haqiqiy baxt, farovonlik deb o'ylashida va bilishida;

5) obro'parastlik balosiga yo'liqib, o'zaro bir- birlarini maqtash, ko'kka ko'tarishni yaxshi ko'rishida, ularni boshqalar so'zda ham, ishda ham ulug'lashlarini istashlarida;

6) mutloq hokimiyatga ega bo'lib, o'zga xalqlarni qurol kuchi bilan qo'rqitib o'ziga tobe qilib olishga, ya'ni yakka hukumronlik gashtini shurishga bo'lgan xatti-harakatlari va shu kabilarda o'z ifodasini topgan bo'ladi.






Professor N.E.Muhammadiyahning yozishicha:” Jaholatparastlikning ikki xil ko‘rinishini farqlash zarur. Birinchi ko‘rinishi bu kundalik xarakterga ega bo‘lib, u odamlarning bir biriga, oilasiga, ish joyidagilarga, boshliq yoki qo‘l ostidagilarga qiladigan qo‘polligi, baqir-chaqirlari, janjallari, jismoniy kuch ishlatishi, o‘zini tutolmasligi, nodonligi, ilmsizligi, madaniyatsizligi orqali sodir etadigan xatti-harakatlaridan iborat bo‘lib, ular jamiyatning rivojlanishiga jiddiy ta‘sir yetkazmaydigan, oldini olsa bo‘ladigan ruhiy-axloqiy holatlar jumlasiga kiradi.

Ikkinchi ko‘rinishi – bu jahonda yuzaga kelgan ijimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma‘naviy-madaniy ahamiyatga molik bo‘lgan masalalarni hal etishda biron bir elat, millat va xalqlarning ichki ishlariga qo‘pol tarzda aralashib, tinchligini buzib, ularni qurol kuchi bilan o‘zlariga tobe qilishga qaratilgan ilmsizlik, achchiqlanish, ranjish, g‘azablanish bilan qiladigan nodonlarcha, tajovvuzkorona xatti-harakatlari shaklida ifodalanadi”[4.16-17.]. Bugungi kundagi ana shunday ko‘rinishdagi jaholatparast kuchlar va ularning elat, millat va xalqlarning tinch-osuda hayotiga solayotgan tahdidlari haqida Sh.M.Mirziyoyev: ”Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, ommaviy madaniyat kabi xaf-xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan e‘tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Mana shunday va boshqa ko‘plab tahdidlar insoniyat hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotganligi – ayni haqiqat va buni hech kim inkor etolmaydi”[5.505.],– degan edi.

Jahl va aql. Jaholat bu hissiyotni jilovlay bilmaslik oqibatida kelib chiqadigan xatti-harakat, boshqalarga nisbatan beshafqat va vahshiyona munosabatda namoyon bo‘ladi. Jahl esa insonning his-tuyg‘uga berilishi natijasida yuzaga keladigan salbiy xususiyat sifatida o‘zgalarga nisbatan murosai-madora qilishga to‘siq bo‘ladi. Jahлга berilish boshqalar bilan kelisha olmaslik, ziddiyatning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Inson hayotida aql va jahl yonma-yon turadi. Aql insonning do‘sti bulsa, jahl esa uning ashaddiy dushmanidir. Jahl inson tabiatining yengilligidan dalolat beradi. Yengil tabiatlilik, irodasizlik insonda jahl uchun zamin yaratadi, jahl g‘olib kelsa uni falokatga eltadi. Jahl shunday zararli illatki, u johilnigina emas, hatto uning atrofidagi kishilarning ham umrini egovlaydi. Jahlning eng yomon tomoni shundaki, u nozik tabiatli, pok insonga ham, bad- xulq insonga ham bir xil tarzda yo‘naltirilishi mumkin. Jahlning tildagi ifodasi insondagi barcha ezgu fazilatlarni





yo'qqa chiqaradi, uni tiya bilish esa, jamoatchilik oldida ezgu fazilatlarini saqlab qolish demakdir. "Jahl xatoga yul ochib beradi, u yaqin kishilar o'rtasiga nifoq soladi, parokandalikka sabab bo'ladi"[6.169-170.].


Insoniyatni jaholatdan qutqazish uchun ma'rifat bilan shug'ullanuvchilarni «Ma'rifatchi»lar, aksincha, kishilarning tinchligini buzib, ularning boshlariga har xil balo-qazolarni yog'dirish bilan shug'ullanuvchi, nodon, ilm-ma'rifatning dushmani bo'lgan madaniyatsiz, johillikni odat qilib olgan kimsalarni "Johillar"lar deb ataymiz. Bunda ma'rifatchilar tomonidan odamlar orasida olib boradigan ma'rifat ishlari "Ma'rifatchilik", jahl, g'azab bilan sodir etadigan xatti-harakatlari "Jaholatparastlik" deb baholash orqali ifodalash mumkin.

Shunday qilib ma'rifatning asl mohiyatini M.Behbudiyning quyidagi:" «Ilm-ma'rifatsiz hech bir millat ...hayot maydonida tura olmas. Xoh ul millat hokim, xoh ui millat mahkum bo'lsin, ilm ma'rifatdan mahrum bo'lganligi uchun boshqa san'at va hunar toji bo'lgan millatlarning oyog'i ostida ezilishga majburdirlar... Boy bo'lgan millat albatta dunyoda yashay oladur. Ul millatning diniga emas, hatto milliyatiga va shaxsiyatiga hech kim tega olmaydir... Hunarlik va boy bo'lmoq uchun nima lozimdir? Albatta, ilm va ma'rifat lozimdir... Hunarli va ma'rifatli bo'lgan millatlarning xalqlari faqir va bechora bo'lib, darvishlar qiyofasiga kirib, gadoylik qilib yurmaydilar»[7.452],- degan so'zlaridan anglab olish mumkin. M.Behbudiyning mazkur fikrlari o'z ahamiyatini hozir ham yo'qotgani yo'q.

Ma'rifatli jamiyatni bunyod etishda jaholatparastlikka yul qo'ymaslik uchun quyidagi **omillarni** rivojlantirish lozim: Bunda yoshlarning: 1) dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'unlashtirish asosida, buzg'unchi g'oya va mafkuralarning oldini olib, risoladagidek ma'naviy-ma'rifiy muhitni yaratish; 2) ma'rifatli jamiyatni shakllantirish va rivojlantirishga bo'lgan daxldarlik tuyg'usini kuchaytirish, ayni vaqtda jaholatparastlikka nisbatan bo'lgan nafratini tizimli tarzda oshirib borish; 3) huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni kuchaytirish evaziga jaholatparastlikka qarshi turaoladigan axloqiy-huquqiy madaniyatli insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazishning innovatsion kreativ usul va vositalarini ishlab chiqish va ularni hayotga tadbiq etish.


Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.- Тошкент:"Адолат" миллий ҳуқуқий ахборот маркази,2023 й. – Б.4.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри.- Тошкент: "Ўзбекистон" нашриёти - Б.288-289.





3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.2-жилд.- Т.: “ Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти,2006. - Б.78.
4. Муҳаммадиев Н.Э.Жаҳолатга қарши маърифат билан кураш – жамиятни тинч ва барқарор ривожлантириш омили. Монография. – Т.: ТошПТИ нашриёти. – Б.16-17.
5. Мирзиёев Ш.М. Жисмоний ва маънавий баркамол ёшлар – бугунги ва эртанги кунимизнинг ҳал қилувчи кучидир// Унинг ўзи. Миллийтараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб,янги босқичга кўтарамиз.1-жилд,-Т.: «Ўзбекистон»НМИУ,2017. – Б.505.
6. Маънавият:асосий тушунчалар луғати. – Тошкент.: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти” нашриёти,2021. – Б.169-170.
7. Ўзбек педагогикаси антологияси. Икки жилдли. Ж. 1. – Т.: Ўқитувчи, 1995. –Б. 452.
8. O'G'LI, XOLIQULOV MUHAMMAD QAXOR. "GEO-IDEOLOGICAL PROCESSES AND LAWS OF THEIR ORIGIN." International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences 4 (2024): 22-27.
9. Sadriyevna, Azizova Laylo, and Xoliqulov Muhammad Qaxor o'g'li. "KOMIL INSON FALSAFIY GENEZISIDA ABU ALI IBN SINO QARASHLARI TAHLILI." BARCHA SOHALAR BO 'YICHA 32.10 (2023).
10. O'G'Li, Xoliqulov Muhammad Qaxor, and G. G'Ofirova Muxlisa. "Ofur Qizi." A. NAVOIYNING AR." BAIN (QIRQ HADIS) ASARIDA TARBIYA TO 'G 'RISIDAGI QARASHLARI." TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI 4 (2024): 24-28.
11. Xoliqulov, Muhammad Qaxor O'G'Li. "MA'NAVIYAT TUSHUNCHASINING MOHIYATI, UNING JAMIYAT STRUKTURASIDAGI O'RNI VA ROLI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 4.26 (2024): 384-388.
12. Azlarova, Ozodaxon Xasanxonovna. "DAVLATNING KELIB CHIQISHI NAZARIYASI (SIVILIZATSION YONDASHUVLAR MISLIDA)." Analysis of world scientific views International Scientific Journal 3.1 (2025): 141-149.
13. Abduqodirov, Asilbek, and Muhammad Xoliqulov. "YOSHLARDA MAFKURAVIY IMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM TIZIMINIDAGI KONSEPTUAL JIHATLARI." Академические исследования в современной науке 3.27 (2024): 100-105.
14. Kholikulov, Mukhammad. "Scientific-Theoretical and Philosophical Origin of the Doctrine of Unity in Sufism." (2023).





15. Odilovna, Xamrayeva Muslima. "O'ZBEKISTONNING MILLATLARARO SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI." Pedagog 81.1 (2025): 47-49.
16. Odilovna, Xamrayeva Muslima. "O 'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNING FALSAFIY ASOSLARI." Tadqiqotlar 61.1 (2025): 292-295.
17. Shomurotovna R. Y. Comprehensive analysis of the problem of professional maladaptation quality and health status of nursing //zamonaviy ta'lim: muammo va yechimlari. – 2022. – T. 1. – С. 47-48.
18. Hakimovna X. X. O 'quvchilar jismoniy tarbiyasi tizimida qattish //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – С. 378-381.
19. Xonbuvi H. Yunusov Sardor Ashrafzoda indicator functions in medicine galaxy international interdisciplinary research journal (giirj) issn (e): 2347-6915 Vol. 12. – 2024.
20. Khakimova H. H., Barotova R. S. THE IMPORTANCE OF PREVENTION IN MEDICAL PRACTICE //Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 96-98.
21. Хакимова Х. Х., Баротова Р. С. ЗНАЧЕНИЕ ПРОФИЛАКТИКИ В МЕДИЦИНСКОЙ ПРАКТИКЕ //Сеть медицины: Журнал медицины, практики и сестринского дела. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 96-98.
22. Хакимова Х., Худойназарова Н. Е. СПОРЫ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЕДИЦИНСКОГО РАБОТНИКА //Сеть медицины: Журнал медицины, практики и сестринского дела. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 66-70.
23. Radjabova, Manzura Xurramovna. "Falsafiy-pedagogik yondashuvlar: media madaniyatini shakllantirishda ta'limning o'rni". Ijtimoiy fanlar va gumanitar fanlar tadqiqot asoslari jurnali 5.04 (2025): 96-98.

